



NAZARIY POETIKADA YO‘QOTILGAN BOLALIK MOTIVI (CHARLES DICKENSNING “OLIVER TWIST” ASARI HAMDA TOHIR MALIKNING “ALVIDO BOLALIK” ASARLARI MISOLIDA)

Nosirov Suhrob Shuhratovich
SamDCHTI Stajyor-o‘qituvchisi
@suhrobnosirov60@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nazariy poetikada yo‘qotilgan bolalik motivining badiiy adabiyotdagi o‘rni va vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz adabiyotining buyuk vakili Charles Dikensning “Oliver Twist” romani hamda o‘zbek nasrining taniqli namoyandasi Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasi tanlab olingan. Ikki asarda bolalik dunyosining yo‘qolishi, bolaning jamiyat tomonidan rad etilishi, ruhiy azob va mahrumlik motivi qiyosiy-tipologik usulda o‘rganiladi. Maqolada yetimlik, ijtimoiy adolatsizlik, bolalik va kattalar dunyosi o‘rtasidagi to‘siq kabi tematik qatlamlar qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: yo‘qotilgan bolalik, motiv, Oliver Twist, Alvido bolalik, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Jahon adabiyotida bolalik motivi insoniyatning o‘z o‘tmishiga, beg‘uborlik va begunohlik davriga bo‘lgan nostalji sifatida ko‘plab asarlarda muhim o‘rin egallaydi. Bolaning dunyoni aks ettiruvchi ko‘zlari orqali jamiyatning botil tomonlari, ularning qilmishlari va inson qalbining chuqurliklarini ifodalash adabiyotning o‘ziga xos uslubiy vositasiga aylangan. Nazariy poetika nuqtai nazaridan “yo‘qotilgan bolalik” motivi bu faqat bola qahramonning baxtsizligi emas, balki kattalar olamining ma’naviy qashshoqligi, jamiyatning bolaga va kelajakka bo‘lgan munosabatini ochuvchi ramziy qatlam hamdir.

XIX asrda yashab ijod etgan Charles Dikens ingliz realist adabiyotining yetuk vakili sifatida o‘zining ijtimoiy-tanqidiy romanlari bilan o‘quvchilar qalbida chuqur iz qoldirgan. Uning “Oliver Twist” asari ingliz adabiyotida bola qahramonni markazga olib, jamiyatning axloqiy tanazzulini ifoda etgan dastlabki yirik romanlardan hisoblanadi [1]. XX asrning ikkinchi yarmida esa o‘zbek adabiyotida Tohir Malik o‘z asarlari bilan o‘zbek adabiyotida yangi sahifa ochdi. Uning “Alvido bolalik” asari milliy an’analarga boy bo‘lgan holda bolaning ruhiy iztiroblarini, yo‘qotishlarini va ulg‘ayish jarayonining og‘riqli tomonlarini real hayot manzaralari orqali tasvirlaydi [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi ikkala asarda yo‘qotilgan bolalik motivining badiiy-estetik va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini qiyosiy tahlil qilish, bu motivning



milliy adabiy an'analardagi oxshashlik va farqlarini aniqlashdan iborat.

Nazariy poetikada motiv asarning tematik va kompozitsion birligini ta'minlovchi, qayta-qayta takrorlanuvchi va ma'lum ramziy yukni zimmasiga oluvchi mazmuniy element sifatida talqin etiladi. A.N.Veselovskiy motivni adabiy asarning elementar, bo'linmas formulasi deb ta'riflagan bo'lsa [3], B.Tomashovskiy motiv tushunchasini syujet qurilishidagi asosiy tematik birlik deb izohlaydi [4]. Zamonaviy adabiyotshunoslikda esa motiv badiiy matnning mazmuniy-struktur kategoriyasi sifatida keng o'rganilmoqda.

“Oliver Twist” romani ingliz jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlikni, qashshoqlikni va inson huquqlarining poymol etilishini kichik yetim bolaning ko'zlari orqali tasvirlaydi. Roman bosh qahramoni Oliver Twist dunyoga onasiz, ota-onasiz keladi va shu tariqa hayotining boshidanoq yo'qotilgan bolalik motivining markaziy timsoliga aylanadi [1].

Asarda yo'qotilgan bolalik motivi bir necha badiiy vosita orqali ifodalanadi. Birinchidan, mehribonsizlik muhiti: yetimxona, ishxona va jinoyatchilar jamiyati bola uchun dushman olamni anglatadi. Har bir muhit Oliverning bolalik baxtini bir qadam so'ndiradi. Ikkinchidan, ochlik va jismoniy azob tasvirlari bolalik quvonchini yo'qotishning ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, Oliverning sofdilligini, begunohligini saqlab qolishga intilishi yo'qotilgan bolalik motivining romantik-falsafiy qatlamini tashkil etadi.

Dikens ushbu asarda bolalik va innocence (begunohlik) tushunchalarini o'zaro bog'liq holda ko'rsatadi. Oliver hayoti davomida ko'plab adolatsizlik va yovuzlik bilan to'qnashsa ham, uning ichki sofligini yo'qotmasligi motivning asosiy g'oyaviy yukini tashkil etadi. Jamiyat bolalikni yo'qotadi, lekin bolaning qalbi va sof niyatini yo'qota olmaydi bu Dikensning asosiy xulosasidir.

Dickens ijtimoiy realizmining o'ziga xos xususiyati shundaki, u bolaning dunyoni idrok etishini kattalardan farqli, aniq va sof ko'rish qobiliyati deb tasvirlaydi. Oliver Twist faqat azob chekayotgan shaxs emas, balki ingliz yuqori qatlam jamiyatining XX asrdagi vijdoni hamdir. Uning ko'zlari orqali ko'rilgan dunyo bu jamiyatning o'z aksini ko'rishi uchun tutilgan ko'zgu.

Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasi o'zbek adabiyotida bolalik dunyosining yo'qolishi motivini milliy-ma'naviy kontekstda ifodalovchi asardir. Qissada bolaning kattalar olamiga qadam qo'yish jarayoni, bolalik quvonchlaridan ayrilish, hayotning og'ir tomonlari bilan yuzlashish tasvirlangan [2].

O'zbek nasridagi yo'qotilgan bolalik motivining o'ziga xos milliy qirralari mavjud. Bu qirralarga avvalambor oila va mahalla muhiti kiradi: o'zbek adabiyotida bola ko'pincha keng jamoaviy muhit oila, Jamiyat,



qo'shnilar bilan munosabatda ko'rsatiladi [5]. Bu muhitdan uzilish yoki uning o'zgarishi bolalik yo'qolishining asosiy belgisiga aylanadi. Shuningdek, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi qarama-qarshilik ham muhim o'rin tutadi: Tohir Malik asarida bolalik dunyosi ko'pincha an'anaviy hayot tarzi, soddalik va tabiat bilan bog'liq bo'lsa, kattalik yangi, murakkab va ko'pincha shafqatsiz ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi [6].

Asarda yo'qotilgan bolalik motivi nostalji va huzun ohanglarida ifodalanadi. Qahramon o'tgan bolalik kunlarini eslar ekan, nafaqat shirin xotiralar emas, balki o'tmishning takrorlanmasligidan keladigan iztirob ham namoyon bo'ladi. "Alvido" so'zining o'zi vidolashuv, qaytib kelmaydigan narsadan ayrilish ma'nosini anglatadi va bu so'z asarning asosiy emotsional tonini belgilaydi. Ikkala asar qiyosiy o'rganilganda, yo'qotilgan bolalik motivida bir qancha universal o'xshashliklar hamda milliy o'ziga xosliklar aniqlanadi.

Universal jihatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi. Birinchi o'xshashlik bolaning jamiyat tomonidan rad etilishi: Oliver yetimxona va ko'cha hayotiga tashlanadi, Tohir Malik qahramoni esa o'zini katta dunyoning begona bir unsuri sifatida his qiladi. Ikkinchisi bolalik va kattalar olami o'rtasidagi to'siq: har ikkala asarda ham bu ikki dunyo o'rtasida o'tib bo'lmaydigan chegara mavjud. Uchinchisi nostalji va iztirob: ikkala asarda ham yo'qotilgan bolalikka nisbatan chuqur sog'inch va huzun hissi aks ettirilgan. To'rtinchisi bolalik timsolining ma'naviy soflik ramzi sifatida qo'llanishi: bola qahramonlar kattalar dunyosining iflosliklaridan yuqori turuvchi ma'naviy standart bo'lib xizmat qiladi.

Farqli jihatlar esa quyidagilarda ko'rinadi. Ijtimoiy tanqid va shaxsiy notalji masalasida Dickens asarida ijtimoiy tanqid ustun bo'lib, yo'qotilgan bolalik jamiyatning aybini ko'rsatuvchi vositaga aylanadi; Tohir Malik asarida esa shaxsiy nostalji, ichki ruhiy o'sish va an'anaviy hayot tarziga sog'inch ustunlik qiladi. Yetimlik va ajralish masalasida Oliver jismoniy yetimlik ota-onasizlik tufayli bolalikdan ajraladi; Tohir Malik qahramoni esa ma'naviy ajralishni kattalar dunyosiga majburiy o'tishni boshdan kechiradi. Umid va hal qilishda Dickens asari optimistik finalga ega: Oliver adolatga erishadi o'zbek asarida esa hal qilinmagan iztiroblar, yo'qolgan narsaning qaytmasligidan keladigan qayg'u kayfiyati ustuvorlik qiladi.

Charles Dickensning "Oliver Twist" va Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarlarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, yo'qotilgan bolalik motivi turli milliy adabiyotlarda universal insoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi umumadabiy jarayondir. Ikkala asarda ham bola qahramonning ko'zlari orqali kattalar dunyosining qarama-qarshiliklari, adolatsizlik va ma'naviy muammo ko'rsatiladi.



Biroq bu umumiylik milliy adabiy an'analarga muvofiq turlicha badiiy shaklda namoyon bo'ladi. Dickens ijtimoiy tanqidni oldinga qo'yib, jamiyatni o'zgartirish imkoniyatiga ishonch bildirsa, Tohir Malik shaxsiy psixologik iztirobni, o'tgan kunlarga sog'inchni, milliy turmush tarzining nozik tomonlarini ko'proq ta'kidlaydi.

Shu ma'noda ushbu ikki asar qiyosiy tahlili adabiyotshunoslikda motivlarning milliy va universal qirralari o'rtasidagi munosabatni o'rganishga muhim hissa qo'shadi va qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasini boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Malik, T.** Alvido, bolalik. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 224 b.
2. **Veselovskiy, A.N.** Istoricheskaya poetika. Moskva: Visshaya shkola, 1989. 408 b.
3. **Tomashevskiy, B.V.** Teoriya literaturi. Poetika. Moskva: Aspekt Press, 1996. 334 b.
4. **Karimov, N.** XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2008. — 512 b.
5. **Normatov, U.** Ijod saboqlari. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987. 256 b.